

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 38-39
(66475-76)

2004 yil
20 sentabr - 3 oktabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqqan
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

O'qituvchi, muallim, ustoz deganda, bizning ko'z o'ngimizda doimo mehridaryo, ziyo taratuvchi, nur sari o'stirishga, ularni odamiylik, mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga jiddiy e'tibor beraman. Ularni yuksak estetik mohiyatga ega

Darslarim mavzusiga oid she'rlar yozib, shogirdlarimni quvontiraman. Alifboda harflarga, o'qish darsi uchun

FAN BOG'INING BOG'BONLARIMIZ!

intilishga da'vat qiluvchi, shogirdlarini ulug' maqsadlar sari yo'llaydigan oliy zot

ta'sirchan gap, bayt va misralardan iborat bo'lgan hikmatlar asosida o'qitib, sahnali

hikoya va ertak qahramonlariga, jismoniy daqiqalarga oid yozganlarimni o'quvchilarim berilib tinglashadi. Ularni ko'zlariga, aytayotgan so'zlariga qarab dilini anglashga intilaman. Har bir bolaning o'z dunyoqarashi, o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu fazilatlarini to'g'ri yo'lga solib shakllantirish o'qituvchining birinchi galdagi vazifalaridan hisoblanadi.

Muallim bir so'z bilan aytganda fan bog'ining bog'bonidir. Unda g'uncha misol yuz ochayotgan yuzlab shogirdlarining kelajagini, kamolini yurakdan his qila olishi lozim. Ushbu sharaflari ayni damda o'ta murakkab kasbni ardoqlab kelayotgan kasbdoshlarimni ustoz va murabbiylar bayrami bilan chin qalbidan tabriklayman. Ularga sog'lik, omonlik tilayman!

Muhabbat
MAMAJONOVA,
Farg'ona viloyati,
Oxunboboyev tumanidagi
30-o'rta maktab o'qituvchisi.



gavdalanadi. O'qituvchi har bir darsidagi mavzuni yangiliklar bilan boyitib, texnika vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'qitsagina, kasbiy zafarlarga erisha oladi. O'z ichki qobiliyatlarini ishga solib, shogirdlarining qalbiga yo'l topgan insongina haqiqiy ustozdir. O'tayotgan har bir darsimda bunga amal qilishga intilaman.

ko'rinishlar tashkil etishim, odob-axloqqa oid she'rlardan foydalanib turishim ijobiy samara bermoqda.

Matematika darslarimda esa, o'quvchilar darslikda berilgan misol va masalalar bilan cheklanib qolmay, «Mezbon-mehmon», «Qarg'a», «O'ylab top», «Jim», «Zina», «Raqam yo'qoldi», «Juftmi-toq» kabi o'yinlarni ham qiziqib o'ynashadi.

O'qish darslarida o'qituvchida ijodkorlikning o'quvchilarimni nutqini bo'lishi ham zarur ekan.

ROSTINI BOLALARDAN SO'RANG

Uzoq yillardan buyon G'ijduvondagi 8-sonli «Kamalak» bolalar bog'chasiga mudiralik qilib kelayotgan Nadejda Kulikovaning qanday inson ekanligini bilgingiz kelsa, kattalardan emas, bolalardan so'rang. Chunki ular yolg'on gapirishni bilmaydilar, rostini so'zlaydilar...

Biz ham shunday qildik. Bolajonlar Nadejda opalari haqida shunday to'lqinlanib

gapirdilarki, asti qo'yaverasiz. Nadejda Kulikovaning bolalarning haqiqiy «Katta do'sti» ekanligiga, har bir bola qalbiga yo'l topa oladigan ajoyib murabbiy ekanligiga shubhamiz qolmadi.

Bolajonlar hamshira opalari Muyassar Jo'rayeva, uslubchi opalari Dilrabo Komilova, tarbiyachilari Zulfiya Bahromova, uning yordamchisi Dilorom Ikromovalarni ham juda maqtashdi.

-Ular bizga o'qishni, yozishni o'rgatishadi, biz bilan birga qiziqarli o'yinlar o'ynashadi,-dedi Durdona.

Jamila, Umid va Farangizlar esa tarbiyachilaridan o'rgangan she'r va qo'shiqlarini ijro etib, barchamizni xushnud etishdi. Ana shunday bag'ri keng, mehri daryo murabbiylarimiz saflari yanada kengayaversin.

Ozoda MUHAMMEDOVA.



QOLDIRILGAN DARS

Bu voqea o'tgan yili xuddi shunday, ya'ni ustozlar bayrami arafasida yuz bergandi. Biz, 9-sinf o'quvchilari ustozlarimizni tabriklash maqsadida sovg'alar sotib oldik. Maktabimizda Gulsanam degan yangi kelgan ustozimiz bo'lardilar. Ular maktab yaqinidagi bir uyga ko'chib kelgandilar. Hamma ustozlar bir bo'ladi-yu lekin ular shirinso'zligi, qandaydir ma'yusgina chehralari bilan boshqa o'qituvchilardan ajralib turardilar. Xullas, ularning darslarini intiqib kuta boshladik. Mana,

opa yig'lab yubordilar. Qo'rqib ketgan Jasur nima dedim, degan nigoh bilan hammamizga bir-bir qarab chiqdi. Bu holdan hammamiz hayron edik. Shu kuni Gulsanam opa dars o'ta olmadilar...

Keyin bilsak, Gulsanam opaning farzandi yo'q ekan. Ularning bolalarni yaxshi ko'rishlari ham shundan ekan. O'ylamay gapirilgan gap uchun ulardan ko'p marta uzr so'radik. Hatto ularni darsida jim o'tirmaydigan ba'zi o'g'il bolalar ham yuvvosh tortib qolishgandi. Garchi



Gulsanam opamiz sinfga har doimgidek jilmayib kirib keldilar. Biz hammamiz o'rnimizdan turib, ularni qarshi oldik. Sinfboshimiz Xurshida oldindan tayinlab qo'yilgan sovg'ani ularning qo'llariga tutqazdi. Ular bir zum sovg'aga qarab qoldilar. -Sizlarning yaxshi o'qishingiz men uchun eng katta sovg'a,- dedilar. Shunda sinfdoshimiz Jasur: -Ustoz, bugun jiyanalarni xursand qilaysiz, biz esa albatta yaxshi o'qiymiz, dedi. Shunda Gulsanam opaning rangi oqarib, qo'llaridagi sovg'ani tushirib yuboray dedilar. -Ha, ha,- dedilaru, beholgina stolga o'tirdilar. Biz gap nimadalgini tushuna olmadik. Birdan Gulsanam

Gulsanam opa bizni kechirgan bo'lsalar-da, ularning darslarida biz, ayniqsa, Jasur o'zini noqulay sezardi.

Gulsanam opa esa o'zlarini xuddi hech narsa bo'lmagandek tutar, har doimgidek darslarini o'tib, yana shirin jilmayib chiqib ketardilar. Biz ularning irodasiga, sabru matonatiga qoyil qoldik. Gulsanam opa bu yil boshqa maktabga o'tib ketdilar. Biz 10-sinf o'quvchilari ular qayerda bo'lmasinlar, sog'-salomat bo'lib yurishlarini, doimo yuzlaridan tabassum arimasligini istab qolamiz.

E'zoza IMOMALIYEVA,
Toshkent viloyati,
Yuqori Chirchiq tumani,
«Do'stlik» jamoa xo'jaligi.

USTOZLARIMGA

Sochini qarasin bizlarga bergan,
«Ko'zlarim nuri ham sizlarga» degan,
Shogirdlarin sevib-ardoqlab,
Barchamizning g'amimiz yegan,
Ustozlarning buyuk mehnatin,
Anglamay bo'lurmi, ayting do'stlarim?
Muallim - ustozlar haqqi - hurmatin,
Ado etib bo'lurmi, ayting do'stlarim?!
Ayyomingiz muborak bo'lsin, ustozlar,
Shogirdlar ehtiromi atalgan Sizga.
Yurakdan otilib chiqqan tilaklar,
Barcha ezguliklar, barisi Sizga!

Madina SAIDMURODOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani.

TALABI TOSHDAN QATTIQ

Ustoz haqida so'z ketganda, ko'z oldimda o'zim tahsil olgan Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 6-sonli maxsus litsey-internat direktori Hamidjon aka Jumaniyozovning siyosi gavalanadi. To'g'risi, o'quvchilik yillarimizda ularning o'ta talabchanliklaridan biroz ranjirdik. Har bir qadamimizni nazorat qilib, tergap turishlari ko'pchiligimizga yoqmasdi. Endi esa yoshimiz biroz ulg'aygach, ustozning toshdan qattiq talabi bizga faqat foyda keltirganiga, mustaqil hayotdan o'z o'rnimizni topishimizga puxta bir zamin yaratganiga amin bo'lib

turibmiz. Bugungi kunda nafaqat biz, ustozning o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash borasida olib borayotgan ibratli ishlarini barcha qadrlayapti. Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i P.O'razov bayram munosabati bilan Hamidjon akani muborakbod etib, quyidagicha tabrik yo'llaganlari ham bejiz emas:

«Siz va pedagogik jamoangiz fidoiy mehnatlaringiz bilan iqtidorli yoshlarni tanlash, o'qitish va tarbiyalashga ulkan hissangizni qo'shdingiz. Shu tufayli shogirdlaringiz, ota-onalar va jamoatchilikning cheksiz hurmatiga sazovor bo'ldingiz. Sizlar tarbiyalangan o'quvchilar har yili viloyat, Respublika miqyosida o'tkazilayotgan olimpiada va ko'rik-tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Litseyingiz mazkur o'quv yilida ham ixtisoslashgan maktablar o'rtasida viloyat fan olimpiadalarida faxrli 1 - o'rinni egalladi. Mehnatlaringiz samarasi o'laroq bugungi kunda shogirdlaringiz respublikamizning va jahonning nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqdalar.

Kelajagi buyuk yurtimiz tayanchi bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashdek sharaflig'ingizda ijodiy muvaffaqiyatlar, sog'lik-omonlik tilaymiz...»

Ustozimiz Hamidjon akaga bildirilgan barcha tilaklarga biz ham qo'shilgan holda, ularga sihat-salomatlik, ishlariga rivoj tilab qolamiz.

Shogirdlari nomidan Otabek ESHCHANOV.



Surat muallifi:
Poytaxtimizdagi
283-maktabning
8-sinf o'quvchisi
Malika KARIMOVA.

«SIZ RAYHONGA O'XSHAYSIZ»

«Ustoz, u bizlarni kamolot sari yetaklovchi muhtaram zotdir. Uni otangdek ulug' deb bil...»

Men keltirgan ushbu parcha onajonimning 14 yoshligida yozgan maqolasidan olingan. Uning ustozga bergan ta'rifini o'qib, to'lqinlanib ketdim va quyidagi dil so'zlarimni qoraladim:

Ustoz... Bilim sarchashmasi bo'yida o'sgan xushbo'y rayhonga o'xshataman sizni. Rayhon o'zining yoqimli hididan barchani birdek bahramand etganidek, siz bilimingiz chashmasi bilan ilmga tashna dillarni sug'orasiz...

Ustoz, Sizni yana nimaga qiyos etayin? Ko'kdagi oy zulmatni yoritgani kabi Siz ham ongimizni, shuurimizni, ertangi kunimizni

yoritib turasiz. Inson ongli mavjudotdir va biz bu yuksak ta'rifga ham ustoz sharofati bilan erishganmiz.

«Bilim olish oson, bilim berish qiyin». Ushbu naqlda bir olam ma'no bor. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'g'il - qiz borki, avvalo Sizning qaynoq mehningizdan bahramand bo'ladi. Ilk bor «Ona», «Vatan», «Ota» kabi so'zlarni ming mashaqqatlar ila o'rgatgan inson ham siz bo'lasiz.

Ustoz, boshingizga qo'ngan oppoq qirov - oppoq sochlaringiz umr bo'yi qilgan yaxshiliklaringiz ramzi emasmi?

Eh, bu yoshlik - beboshlik! Yoshlik qilib, qalbingizga qancha sitamlar yetkazib qo'ydik o'sha

damlarda. Ba'zan, qachon shu maktabni bitirarkanmiz-a, deya nolib ham qo'yardik...

Mana, o'sha kunlar ham keldi, maktabni ham bitirdik. Endi esa qalbimizni sog'inch o'rtayapti. Qani endi maktab davrimiz yana qaytib kelsa. Afsuski, buning iloji yo'q. Qadrdon maktabimiz bag'ridan qaldirg'osh misol uchirma bo'ldik. Parvozimizning naqadar yuksalishi ham Sizga, sizning bergan bilimingizga bog'liq, aziz ustozlar. Sizlarga parvozi yuksak «qaldirg'och»larni tarbiyalashda muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Guljahon ATABOYEVA,
Samarqand viloyati, Oqdaryo
Pedagogika kolleji
1 - bosqich talabasi.

ODAMLARDAN NIMA QOLADI?

Yaxshilik qoladi, ezgu-ishlar qoladi. Inson borki, ezgu - niyatlar, oppoq orzular bilan yashaydi. Ularga esa ustozlarimizning mashaqqatli mehnatlarisiz yetishmog'imiz amri mahol.

O'zim ham ustozman. Lekin o'z ustozlarimizdan yanada ko'proq narsalarni o'rgangim, bilib olgim kelaveradi. Shu maqsadda Navoiy viloyatidagi o'qituvchilar malakasini oshirish institutiga tez-tez borib turaman. Bu dargohdagi jonkuyar, mehribon ustozlarga juda-juda havasim keladi. Ustozlarimiz rektor Anora Bobomurodova, M. Abdullaeva, I.



Aripov, bizga rahbarlik qilgan Mavluda Bozorovalardan odamlardan qidirganim - mehri topdim.

Ustoz va murabbiylar bayrami munosabati bilan ularning barini samimiy qutlayman.

Mavluda opa, sizning bergan saboqlaringiz hamon yodimda. Mehrli nigohingiz ko'z o'ngimda. Qalbingizdagi ana shu mehr, shuningdek, shogirdlaringiz hurmat-ehtiromi abadiy bo'lsin.

Sizga kamoli ehtirom bilan shogirdingiz:

Shoira HAKIMOVA
Navoiy viloyati, Uchquduq shahridagi
7 - o'rtta maktab o'qituvchisi.

QO'SHALOQ AYYOM MUBORAK!

70 yil!.. Aytishgagina oson...



O'qituvchilik faoliyatini Toshkentdagi 73-maktabda boshlagan ingliz tili o'qituvchisi Sardora opa Muxsinova o'sha kezlarda yoshgina iste'dodli mutaxassis edilar. Yillar davomida opaning tajribasi ortgandan orta bordi. Bugungi kunda 18 yildan buyon Sobir Rahimov tumanidagi O. Sodiqov nomli 249-maktabda ingliz tilidan saboq berib kelayotgan Sardora opani nafaqat o'quvchilari, balki ko'plab yosh hamkasblari ham «ustoz» deya ardoqlashadi.

Ustoz! Bu so'zning zamirida olam-olam ma'no, cheksiz hurmat-ehtirom mujassam. Men bu iborani bizlarga berilgan unvon, degan bo'lardim. Sardora opa ana shu unvonga juda munosib inson. Ustozning har bir darsga jiddiy yondoshishiga, ularni samarali o'tish uchun zamonaviy usullardan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishiga faqat havas qilish mumkin...


Ana shu ustozimiz, Oliy toifali o'qituvchi, Xalq ta'limi fidoiysi, Xalq ta'limi a'lochisi bugun 70 yoshni qoraladilar. 42 yildan buyon o'z kasbini ardoqlab kelayotgan Sardora opaga qarab turib, havasim keladi. Ulardagi g'ayrat, shijoatdan ayrim yoshlarimiz o'rnak olsalar arziydi. Opa mehdariyo, xushmuomala, kezi kelganda o'ta qattiqqo'l, talabchan ustoz bo'lish bilan birga 3 nafar farzandlariga mehribon ona, 7 nafar nabiraga suyuqli buvi hamdirlar.

Tavallud ayyomlari, shuningdek, ustoz va murabbiylar bayrami bilan Sardora opamizni samimiy qutlaymiz. Har doimgidek go'zal, shirinso'z va mehribon bo'lib yurishlariga tilakdoshmiz.

Ustozim, Siz uchun bahor bo'lib kelaymiz,
Sochlaringiz siypalab, shamol kabi yelaymiz,
Ahtofingiz bor mehrim, sehrim bilan o'raymiz?
Ayting dilda borini, bajo qilaman bir zum,

Chehrangizda ko'rsam bas, mammuntlik va tabassum!

Sizga ta'zim ila hamkasblaringiz va shogirdlaringiz nomidan Muqaddam YUSUPOVA.



Har qanday davralar, bayram va tantanalar bolajonlar bilan yanada fayzli, zavqli bo'lishi hammaga ayon. Yurtimizda keng tantana

qilinadigan Navro'z, Mustaqillik bayramlari dasturlarida bolajonlarning chiqishlariga keng o'rin berilishi ham shundan. Ana shunday tantanalarda kuy va qo'shiqlari bilan tomoshabinlarga bir olam zavq-shavq ulashib kelayotgan bolajonlar orasida «Orom» o'quv ta'lim-tarbiya markazining o'quvchi va tarbiyalanuvchilari ham bor. Yaqinda nishonlangan Mustaqillik bayrami tantanalaridan so'ng «Orom» bolalarining bir guruhi bilan hamsuhbat bo'ldim. Ular o'zlari tahsil olayotgan

o'qitish o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Jami sinflarimiz soni 48 ta, maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarini 16 ta. Markazimizda 1621 nafar o'quvchi va 352 nafar kichikintoy ta'lim-tarbiya olmoqda. Markazimizning asosiy maqsadi - o'quvchi va tarbiyalanuvchilarimizning o'ziga xos shaxsiy va psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy barkamolligi, qobiliyati va kamolotini milliy qadriyatlarimiz asosida takomillashtirib, ta'limning uzviyligini Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat. Vazifalarimiz

o'tmas ekan. Ular har kuni biror mavzuga bag'ishlangan tadbir va kechalari, musobaqa va bellashuvlarda ishtirok etib, bir olam taassurotlar bilan uyga qaytishadi. Ayniqsa, milliy an'analariga boy bo'lgan o'yinlar, uchrashuvlar, sport musobaqalarida bolajonlar o'ziga xos bir zavq bilan ishtirok etishadi. Muntazam faoliyat ko'rsatadigan fan to'garaklarida ustozlaridan olgan saboqlarini yanada mustahkamlab boradilar.


Maktabimni maqtadim

Markazda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga san'atga bo'lgan qiziqishlari ham shakllantira boriladi. Bu borada talaygina yutuqlar ham qo'lga kiritilgan. Jumladan, 2000 yilda Samarqandda o'tkazilgan «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq bayramida ishtirok etgan markaz qoshidagi o'g'il bolalar xor iamoasi va qizlar dastasi tanlovning «Gran-pri» mukofotiga sazovor bo'lib qaytishdi. 2001 yilda Farg'onada o'tkazilgan

«Umid nihollari» o'quvchilar sport

«OROM» TAHSILIGA TAHSIN

tarbiyalanuvchi, o'quvchilarning irqi, millati, dini, masxabi, kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularning bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishdan, bilimdon, qobiliyatli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishdan, ularda mehnat qilish va ijodiy, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-olamga ongli munosabatda bo'lishga



o'rgatish, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishdan

bayramiga ham markazning o'quvchilari o'z kuy va qo'shiqlari bilan fayz kiritishdi. «Orom»ning bolalari Hindistonda o'tkazilgan bolalar anjumani hamda Yaponiyada o'tkazilgan «Dunyo bolalari festivali»ning ham eng faol ishtirokchilaridan bo'lishdi.

Markazda «Mehr va muruvvat yili» munosabati bilan talaygina tadbirlar o'tkazildi. Uning o'qituvchi va o'quvchilari «Sharq yulduzi» va «Hamza» mahallalari bilan hamkorlikda boquvchisini yo'qotgan oila farzandlariga, nafaqadagi qariyalarga, kam ta'minlangan oilalar farzandlariga kiyim-kechak, oziq-ovqat va o'quv qurollari ulashdilar. «Mehr-muruvvat - ulug' fazilat», «Mehr ko'zda», «Yaxshilik ulashib yashaylik» kabi mavzularda kecha va tadbirlar o'tkazib kelishyapti.

Bir so'z bilan aytganda, «Orom»ning maqtasa maqtadudek, havas qilsa arziqlik yutuqlari juda ko'p ekan. Bu maskanda ta'lim-tarbiya olayotgan bolajonlarga havas bilan boqib, qaysi kasb egasi bo'lishlaridan qat'iy nazar, ertamizning munosib egalari kamol topayotganiga amin bo'lib qaytdim.





bilim maskani haqida biram to'liqlanib so'zladilarki, havasim ortib, ana shu bilim maskani sari otlandim.

Meni markaz rahbari Gulnora opa Qo'chqorova iliq qarshi oldilar va ular hamrohligida maktab binosini aylanib chiqdik.


-Markazimizning maktab binosi 1966 yilda, bog'cha binosi 1967 yilda qurilgan bo'lib, 1998 yildan boshlab «Orom» ta'lim-tarbiya markazi deb nomlangan, -deya so'z boshladilar Gulnora opa. -Markazimizda

iborat. Shuningdek, yosh avlod qalbida xalqiga hurmat, Vatanga sadoqat, insonlarga muhabbat kabi fazilatlarni shakllantirishga intilamiz. Bilimli, barkamol, madaniyatli shaxslarni shakllantirish, ularni oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini to'la biladigan shaxs sifatida kamol toptirishga, axloqan pok, jismonan baquvvat, vatanga sadoqatli, izlanuvchan, tashabbuskor, sog'lom avlodni yetkazib berishga astoydil harakat qilyapmiz...

Davramizga markaz o'quvchilaridan bir guruhi kelib qo'shilishdi-yu, suhbatimiz qizigandan qizib ketdi. Ular markazda yaratilgan shart-sharoitlar, o'tkazayotgan qiziqarli tadbir va kechalari haqida so'zlab berishdi. «Orom» bolalarining biron bir kunlari behuda



Feruza
ABDUSAMAD qizi.



Yaqinda istiqbolimizning 13 yilligini munosib nishonladik. Shu 13 yil istiqbolimizda qanchadan-qancha ezguliklarga eshik ochdi, xayrli ishlarimizga guvoh bo'ldi. Osmono'par binolar, chiroyli imoratlar, muhtasham saroylar yurtimiz ko'rkiga ko'rk bo'ldi.

Toshkentning shundoqqina biqinidagi, Chirchiq shahriga yo'lingiz tushsa, chiroyidan ko'zingiz quvnaydi. «Kimyogarlar shahri» deb ham nomlanadigan bu shaharda avvallari 8 ta zavod ishlab turardi. «Olmos» o'yingohi ham o'tga chidamli va qiyin eriydigan zavodga qarashli edi. Endilikda- chi?..

Keling, yaxshisi ana shular va yangi binoda ish boshlagan Olimpiya zahiralari kasb- hunar kolleji haqida direktor muovini Muyassar opa To'rayevaning o'zlari so'zlab bersinlar:

-Endilikda ushbu o'yingoh bizning ixtiyorimizga berildi. Ko'rib turganingizdek, bu yerda juda katta qurilish ishlarini boshlab yubordik. Nasib bo'lsa, hademay katta-katta musobaqalar o'tkazamiz...

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimi Erkin Yusupov boshchilik qiladigan kollejimizda respublikamizning barcha viloyatlaridan kelgan 450 nafar o'quvchiga 38 nafar tajribali mutaxassislar dars beradilar. Ulardan 20 nafari umumta'lim fan o'qituvchilari, 18 nafari sport murabbiylari. Kasb-hunar kollejimizda sportning 9 turi bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Bulardan dzyudo, og'ir atletika, yengil atletika, eshkak

eshish, milliy kurash turlaridan turon va velosport bo'limlari muntazam faoliyat ko'rsatadi.

Sport maktabimizga bolalar 7- sinfdan tanlab olinadi. 9- sinfdan esa ular 1- kursga qabul qilinadilar.

Kollejimiz tarixiga nazar tashlasak, faxrlana oladigan yutuqlarimiz talaygina. Bu yerda o'qib tahsil olgan ko'pgina

o'yinlarida ishtirok etishga chog'lanmoqdalar.

-Muyassar opa, kollejimizdagi o'quvchilar hayoti va ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida ham gapirib o'tsangiz?

-Kollejimiz hayoti umumta'lim maktablari hayotidan keskin farq qiladi. O'quvchilarimiz barvaqt uyg'onadilar.

kasb-hunar boshqarmasi, sport bo'yicha darsliklar bilan Davlat sport qo'mitasi ta'minlaydi...

«O'ZBEK BOLALARI MENGA YOQDI»

-Men Yaponiyaning Shizuoka shahridan kelganman. Chirchiqdagi Olimpiya zahiralari kollejida ikki yildan buyon dzyudo murabbiyman. Hozir qo'l ostimda 30 nafar yosh sportchilar shug'ullanadilar. Ular

mashg'ulotlarga o'z vaqtida keladilar. O'zbek bolalarining harakati, dadilligi, tirishqoqligi meni hayron qoldirdi. Bolalar ota- bobolari kabi polvonlikka intiladilar. Ularning g'ururi o'zgacha. Yaponiyada ham bolalarimiz sportni chin dildan sevadilar, qadrlaydilar. To'g'ri, sportning mashaqqati ancha qiyin. Ammo uning salomatlik garovi ekanligi yurtimizda benihoya qadrlanarkan. Yosh avlod katta imkoniyatlardan bahramand bo'lmoqda. Demak, yurtimiz bayrog'i jahon sport maydonlarida hilpirayveradi.

Men shahar bo'ylab velosipedda sayr qilishni yoqtiraman. Bu salomatligim uchun koni foyda ekanligini yaxshi bilaman. Lekin sizlarda velosiped mingan odamga boshqacha qarasharkan. O'zim murabbiylik qilayotgan bolalarga ham velosiped minishning foydali jihatlarini tushuntirishga harakat qilyapman...

Xarukuni SHIMOYAMA, murabbiy.

Kasb-hunar kolleji o'qituvchi va murabbiylarining so'zlarini tinglab, bolalar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, u yerda tahsil olayotgan o'g'il-qizlar orasidan yurtimiz sharafini dunyoga taratadigan mohir sportchilar yetishib chiqishiga biz ham astoydil umid qildik. Kimyogarlar shahri - Chirchiqni «Sportchilar shaharchasi» deb ham atagimiz keldi.

«SPORTCHILAR SHAHRI» DA BO'LDIK

o'quvchilarimiz Olimpiada ishtirokchilariga aylangan. Yaqinda Afinada bo'lib o'tgan XXVIII yozgi olimpiada o'yinlarida sobiq

Dastlab jismoniy mashqlar, soat sakkizda esa fan bo'yicha darslarga qo'ng'iroq chalinadi. Kunning ikkinchi yarmidan yana mashg'ulotlar boshlanadi. 300 o'rinli



o'quvchilarimizdan 12 nafari ishtirok etishdi. Bir qator o'quvchilarimiz bugungi kunda O'zbekiston terma jamoasi safida xalqaro musobaqalarda qatnashmoqdalar. Umidli sportchilarimiz ro'yxatini davom ettiradigan bo'lsa, adog'i ko'rinmaydi. Yulya Barzova va Sergey Barzovlar eshkak eshish bo'yicha, Ulug'bek Norqobilov, Suhrob Sultonov, Yura Xabarovdek mohir dzyudochilarimiz ham olimpiada

yotoqxona va oshxona bolalar ixtiyorida.

-Sport maktabining o'quvchilari darsliklar bilan qay darajada ta'minlandilar?

-Fikringizni tushundim. Sport maktabining o'quvchilari darsliklar bilan qanday ta'minlanar ekan, deya qiziqyapsiz-da?.. Kollejimiz o'quvchilari o'quv yili boshidanoq kitoblar bilan to'liq ta'minlanadilar. Fan qo'llanmalari bo'yicha Toshkent viloyati o'rta maxsus


OSIYODA BIRINCHI MARTA

Badiiy gimnastika-sport turlari orasida o'ta nafisligi va nazokati bilan ajralib turadi. Sportning ushbu turini yurtimizda ommalashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda 30- sentabr - 1-oktabr kunlari poytaxtimizning muhtasham «O'zbekiston» sport majmuasida badiiy gimnastika bo'yicha Osiyoda birinchi marta Jahon Kubogi bosqichi - «Sharq go'zali -2004» xalqaro turniri bo'lib o'tadi.

Ushbu nufuzli turnirni O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy gimnastika federatsiyasi tashkil etdi.

Aziz bolajonlar! Nafaqat yurtimizda, balki Osiyoda ilk bora o'tkazilayotgan «Sharq go'zali-2004» turnirida gimnastikadan ilk saboqlarni yurtimizda olgan badiiy gimnastika bo'yicha uch karra jahon, to'rt karra Yevropa chempioni va Afina olimpiadasining g'olibasi Alina Kabayevani ham mahoratli chiqishlaridan bahramand bo'lasiz. Ushbu nufuzli turnirda mamlakatimiz sharafini mohir gimnastikachilardan Alesya Ashayeva, Anastasiya Beretskaya, Ekaterina Babina va Rita Alimova himoya qilishadi.

Barchamiz uchun hayajonli daqiqalarga, quvonchli onlarga boy bo'lgan bu turnirni o'tkazib yubormasdan, albatta tomosha qiling.



Sharq go'zali-2004



O'tgan hafta Tashkent Tennis Markazi qit'amizning 20 mamlakatidan kelgan kuchli tennischilarga mezbonlik qildi. Ushbu chempionat bahslariga mana uch yildirki, Osiyo

Tennis Federatsiyasi boshchilik qilib kelmoqda. Bu nufuzli xalqaro turnir ko'plab iqtidorli yosh

tennischilarga maktab ham bo'lmoqda. Ular katta kortlarda o'z mahoratlarini namoyish etib, tennis muxlislariga tanilib bormoqdalar. Turnirning yuqori saviyada o'tkazilishi juda katta ahamiyat kasb etadi...

Kechagina mohir tennischilar bellashgan, tomoshabinlarning hayajonli olqishlari bilan to'lgan bu maydonda bugun yurtimizning yosh tennischilari kuch sinashmoqdalar. BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi tennis kubogi aynan shahrimizning markaziy tennis maydonlarida bo'lib o'tmoqda. Ushbu musobaqaning maqsadi - sportsevar bolalar orasidan katta kortlarda, xalqaro musobaqalarda qatnashadigan ishtirokchilarni saralash.

Umidli yosh sportchilarimiz orasida yurtimizning taniqli tennischilari Vadim Kusenko, Murod Inoyatov, Akmal Sharipov, Oqqul

Omonmurodova, Ivanna Isroilova, Dmitriy Mazurning izdoshlari yetishib kelayotganiga ishonchimiz komil...

Nihoyat, musobaqaning qiziqarli onlari boshlandi. Kortga qo'llarida 255 gramm va 340 grammgacha bo'lgan yuqori sifatli raketkalar ko'targan, tengqurlari o'rtasida reytingi baland bo'lgan yosh tennischilar chiqib keldilar.

Bahslar kim g'olibligini saralab borardi.

-Bor mahorati va imkoniyatlarini ishga solib o'ynayotgan qashqadaryolik Lola Azimovadan umidimiz katta, deydi uning murabbiysi Omon aka Annaqulov. -

Husniddin Akbarovning ham reytingi baland. Ammo omad uning toshkentlik raqibi tomonda. Buning sababini ham bilaman. G'oliblik ham maydon tanlaydi. Biz xard qoplangan kortda emas, qumli kortda mashq qilganmiz. Demak, xardli kortga moslashish uchun ham vaqt kerak bo'ladi. Chunki xardli gilamda o'ynash qumli joyda o'ynashdan qiyinroqdir...

-Omon aka, ana bellashuvlar ham tugab qoldi. Agar mumkin bo'lsa, shogirdlaringiz bilan tanishsak...

Kelajak qanotlari



Ahadxo'jaev nomli 3 - o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi:

-9 yoshimdan boshlab katta tennis bilan murabbiy

MAYDONDA G'OLUBLIK KUCHI BOR

-Lola AZIMOVA,


Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi Oxunboboyev nomli 4-o'rta maktabining 8-sinf o'quvchisi:

-Avvalo bu musobaqada qatnashayotganligimdan mamnunman. Chunki har bir musobaqa sport olamiga endigina qadam qo'yayotgan yosh sportchi uchun o'ziga xos tajriba maktabidir. Mening musobaqadagi birinchi raqibim chirchiqlik Nigina Rahmonova bo'ldi. Hisob 6:2, 6:3 g'oliblik menga nasib etdi. Ikkinchi kungi raqibim toshkentlik Sabina Sharipova bilan ham ikki to'r o'ynadim. Yana hisob 6:2, 6:3 bo'ldi. Ertaga yangi raqibimni usullarini ko'ramiz. Har holda g'alabadan umid qilib turibman. Hozirgacha tengqurlarim o'rtasida reytingim O'zbekistonda 3- o'rinda turibdi. Maqsadim - faqat g'alaba!

Husniddin AKBAROV, Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi

shug'ullanib kelaman. Murabbiyim Omon akaning ko'magida ko'plab musobaqalarda g'olib bo'lib kelmoqdaman. Biz mashg'ulotlarni shahrimizdagi «Istiqlol» tennis markazida o'tkazamiz. Bugun men mag'lub bo'ldim. Bundan aslo xafa emasman. Chunki bu musobaqadan ko'p narsani o'rgandim, tajribamni orttirdim. Birinchi to'rda va ikkinchi to'rda ham raqibimning omadi chopdi. Bunga sabab albatta maydondagi qulaylik bo'ldi. Men qumli kortda o'ynaganligim bois, gilam ustida harakatlanishim qiyinroq bo'ldi-da...

Maqsadim - tennis akademiyasiga kirib, bilim va mahoratimni oshirish.



Musobaqalar boshlanganiga ikki kun bo'ldi. Hozircha Lolaning qo'li baland kelmoqda. Yana bir shogirdim

2004

2004

2004

NAVBAT JAHON OLIMPIADASIGA

Liviya poytaxti Tripoli shahridan jahon shaxmat tojini kiyib kelgan hamyurtimiz Rustam Qosimjonov biroz dam olishdan so'ng yana xalqaro turnirlarda zafarli yurishlarni boshladi.


Yaqinda grossmeysterimiz Hindistonning Puna shahrida tashkil etilgan shaxmat bo'yicha «Puna Interneyshinl» superturnirida muvaffaqiyatli qatnashdi.

Bu bahsda ham dunyoning o'n nafar kuchli grossmeysteriari bellashdilar. To'qqiz imkoniyatdan olti



ochko jamg'argan Rustamjon yana birinchilardan bo'ldi. Quchoq'i g'alabalarga to'lib toshgan mohir shaxmatchimiz ayni kunlarda, oktabr oyida Ispaniyada bo'lib o'tadigan shaxmat olimpiadasiga jiddiy tayyorgarlik ko'rmoqda.

Bolajonlar, yurtimizning tojdor shaxmatchisi Rustam Qosimjonovga nisbatan havasingiz yanada ortib ketdimi? Unday bo'lsa, siz ham sport bilan samimiy do'stlashing. Sport mashaqqatlaridan cho'chimay, astoydil mashq qiling. Shunda o'ylagan niyatingizga albatta yetasiz.



Qo'sh sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

KAYRLASHGIM KELMAS SEN BILAN HECH HAM

Ilk sevgidan nish urgan Nargiza nazmi-navo mashqida umrining 16 bahorida bong urdi. Bong urdi-yu, sevishini, orzusini, murg'ak yuragida sig'may ketayotgan dardlarini biroz bo'lsa-da, tasalli topish orzusida g'azallar, meros qo'shiqlar va zamonaviy yetuk shoirlar qalamidan tasalli topishni o'ziga maqsad qildi. Faxrli shoirlarimizdan Zulfiya, Oydin Xojiyeva, Gulchehra

Jo'rayeva, Xudoyberdiyeva va boshqalarning ijodlaridan bahramand bo'la boshladi. Muborak buvilari Sharifaxon aya, Nargizaxon nabiram uyqusizlik kasaliga uchrab qoldi deganlarida, men, yo'q onajon, bu kasallik emas, bu - Olloh tomonidan aytilgan baxt bedorligi deb tushuntirdim. Va shu suhbat sabog'ida qator she'riy mashqlarini tinglab, sadoqatlilikni ulug'lovchi, ahdu-vafolarga qaratilgan

Halima she'rlaridan mamnun bo'ldim. She'riyat chamaniga mustaqil yo'l olgan qat'iyatli, sinchkov va kechalari she'rlar mashq qilgan qizimiz Nargiza Odilovaga oq yo'l tilab, bir to'rtlik baxshida etishni ravo ko'rdim:

*Umid nihollarin yashnatib butkul,
Chin sevgi gulshanin yaratsin orzu.
Qo'nimsiz darbadar oshiqon bulbul,
Diyorim sha'niga she'r bitsin mang'u.
Ozod KARIMOV.*

BOLALIK

*Kayrlashgim kelmas sen bilan hech ham,
Sezmay qolibman men ketganing o'tib.
Qalbmida izzat, ko'zlarimda nam,
Yuragim yig'laydi sensiz ontikib.*

*Kayr bolaligim betakror faslim,
Ajib sho'xliklaring yodimda qoldi.
Endi ulg'aydimi jajji yuragim,
Xayolim parishon o'ylarga toldi.*

*Qoldi izlaringdan yorug' xotira,
Eng shirin tuyg'ular sendan nishona.
Bolalik bo'larkan shunday tokira,
Qadriga yetolsang yorug' peshona.*



Nargiza ODILOVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyining 107-guruh talabasi.

USTOZ

*Ustoz bilan dunyo charog'on,
Olam bo'lar jannat go'yoki.
Qadrlamas ustozni nodon,
Ularda bor bir kuch sehrli.*

*Dil torini chertar so'zlari,
Qalb orzusini qilgani ro'yob.
Chaqnab turar uning ko'zlari,
Hech bir niyat bo'lmagay sarob.*

*Ustozga biz ta'zim qilamiz,
Bilim uchun bo'lib minnatdor.
Ulug'ligin doim bilamiz,
Nasihatlar ketmagay bekor!*

BOLAJON

*Hoy bolajon, bolajon,
Bunchalar ham asaljon.
Sen tufayli bu dunyo,
Yashnagay to'lib ziyo.
Intilasan samoga,
Jo'r bo'lasan navoga.*



*Bir qiqirlab kulasan,
Kuch-quvvatga to'lasan.
Onalarning ertasi,
Kelajakning egasi.
Hoy bolajon, bolajon,
Unib-o'sgin asaljon.*




BOBO QUYOSH

*Filla barkash quyoshim,
Charaqlab turar.
Fong chog'ida biz tomon,
Yuzlarin burar.
Dalalarga, bog'larga,
Nurlarin tarab.
Rizq ulashar barchaga,
Jilmayib qarab.*



Shohsanam RASULOVA,
Poytaxtimizdagi 320-maktabning 8-sinf o'quvchisi.



Hayot go'zal va shirin. Ayni damda o'ta beshafqat hamdir. **S h u n d a y** bo'lmaganda **y o s h g i n a** **S h a h n o z a n i** ma'yus tortib qolgandirsiz? Agar uni buxorolik tengdoshingiz Shahnoza Qodirova o'z hayotidan yozganini bilsangiz, yanada ta'sirlanishingiz tayin. Chunki dunyoda ota-onadan judo bo'lishdek og'ir musibat yo'qligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bunday kezlarda har kim ham tushkunlikka

*Onam qalbm g'ashlab ketganda,
Bu olamni tashlab ketganda,
Ko'zlarimni yoshlab ketganda,
Dadam ham tark etdilar bizni...*

G'am-anduh insonni shoir qilib qo'yadi, deganlari rost ekan. Shahnozaning she'riy mashqlari ham ortgandan orta bordi. Ota-onasiga

bag'ishlangan she'rlari qatorini ona tabiatga, Vatanga, buyuk ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlab yozilgan she'rlari to'ldira bordi. Uning adabiyotga ishtiyoqi balandligini, o'zi ham she'rlar qoralab yurishini payqagan ustoz Gulnoza Egamova she'rlarini gazetaga berishni maslahat beradi. Shu tariqa

SHAHNOZANI SHOIR QILGAN DARD

d a s t l a b onasidan, oradan hech fursat o'tmay otasidan ham judo qilarmidi?..

*Notirangiz yod etib,
Ko'zda yoshlar aylandi.
Dilim vayron onajon,
Qalbm yana g'ashlandi.
Sizsiz ona, olti yil,
Oltmish yildek o'tdi, voh.
Bugun sizni sog'inib,
Tushda ko'rdim, tortdim oh.
Onajonim, ulg'aygach,
Orzuimga yetaman.
Halol, pok inson bo'lib,
Ruhingiz shod etaman...
Ushbu she'riy misralarni o'qib,*

tushib qolishi mumkin. Lekin Shahnoza bu og'ir musibatlarni sabot bilan yengishga intilib yashayapti. Yaxshiyamki baxtiga bobosi Qayum ota va buvisi Ibadat ayalar bor ekan. Ota-onasini qo'msaganida nabiralari yupanch bo'lishadi, ko'nglini ko'tarishga intilishadi. Hakim aka Sharipovdek serximmat insonlar qizchadan ko'magini ayashmaydi. Shahnozaning holidan xabar olib, kitoblarini chiqarishga yordam berib turadigan bu muruvvatli kishilarning maqsadi, uning o'ksik qalbini biroz bo'lsa -da, ko'tarish. Shahnoza ham qalbidagi izzatni ular bilan bo'lishadi. Yolg'iz qolgan kezlari eng yaqin sirdoshi - qalam va qog'oz bo'ladi:



«G'ijduvon», «Tong yulduzi», «Buxoro oqshomi» kabi nashrlarda uning qator she'rlari chop etila boshladi.

Hozirda G'ijduvon tumanidagi Muqimiy nomli 48-maktabning 5 - «A» sinfida tahsil olayotgan Shahnozaning orzulari bir olam: kelgusida mohir jurnalist, ajoyib shoira bo'lib, Zulfiyaxonim izdoshlaridan biri bo'lmoqchi.

Oppoq orzulari og'ushida yashayotgan, ularga etishish yo'lida astoydil intilyotgan va shu tariqa ota-onasi ruhini shod etish istagi bilan yonayotgan Shahnozaxonga tog'dek sabr va bardosh tilab qolamiz.

Nargiza AKBAR qizi.

YUEBI - BO'GIRSOQ DEGANI...

-Gulnozaxon, boshqa tillarga qaraganda xitoy tilini o'rganish biroz murakkabroq, deyishadi. Nega siz aynan shu t i l n i tanladingiz?

-Aynan shu murakkabligi uchun. Opam koreys tilini mukammal biladilar. Bu tilda chiqadigan gazeta va jurnallarni bemalol o'qiy olishlarini ko'rib, juda havasim kelardi. Keyin bilsam, yapon, koreys tillarida alfavit boru, xitoy tilida yo'q ekan. Shuning uchun ham aynan shu tilni o'rganishga bel bog'ladim. Dastlab juda qiynalдим. Shunday kezlarda oyim boshqa osonroq tilni o'rganishimni maslahat berardilar. Mening esa o'z hayot qonunim bor: Bir ishni boshladimmi, oxiriga yetkazmay qo'ymayman. Qanchalik qiyn bo'lmasin, bu tilni o'rganishga astoydil bel bog'ladim...

-Maktabda ham eng faol o'quvchilardan bo'lgandirsiz-a?

-Eng faoli edim, deyolmaymanu, har holda biron bir tadbir mening ishtirokimsiz o'tmasdi. Navoiyxonlik kechalari bo'ladimi, til bayramlarimi, erinmasdan Muqimiy teatriga borib, milliy liboslardan olib kelardim. Senariylar yozib, tadbirlarning jonli, ishonarli chiqishiga astoydil harakat qilardim.

-Demak, ko'p vaqtingiz maktabda o'tgan ekan-da. Odatda, qizlarining ko'p vaqtini maktabda o'tkazishi ko'pchilik onalarga yoqmaydi. Sizning onangiz bunga qanday qaraganlar?

-Onajonim Dilfuza Azimova shahrimizdagi 86-maktab direktorining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlaydilar.

Shundanmi, jamoat ishlaridagi faolimga aslo qarshilik qilmasdilar. Aksincha, maslahatlari bilan amaliy yordam berardilar.

-Adabiyotga, she'riyatga ham oshnolingiz bor ekan-a?

-6-sinfda o'qib yurgan kezlrimda bizga dars bergan Muxtor Xudoyqulov degan o'qituvchimiz bizda adabiyotga havas uyg'otgandi. A trofimizdagi voqeliklarga befarq bo'lmaslikni, ularni hikoya qilishni o'rgatgandilar.

Bir kuni paypoq to'qib o'tirgandim. Ipimga chigal tushib qoldi. Yecholmay ancha ovora bo'ldim. Shunda oyijonim uni osongina yechib berdilar. Shu kuni «Chigal» nomli ilk hikoyamni yozgandim:


«Mening singlim to'qish to'garagiga qatnay boshladi. Oyim unga to'qish uchun nimalar kerak bo'lsa, barini olib berdilar. Singlim xursand bo'lib ketdi. Bir g'altak ipni qo'lga olib, endi to'qiman deb turgandi, ipi yerga tushib, dumatab ketdi. Qarasa, unga chigal tushib qolibdi. Singlim harchand urinsa ham chigalini yecha olmadi. Buni ko'rgan oyijonim kelib, bir zumda chigalini yechib berdilar. Ularni kuzatar ekanman, «qaniydi hayotning chigallari ham shunday osongina yechila qolsa», deb o'ylardim...»

-Gulnozaxon, bo'sh vaqtlaringizda qanday dam olasiz?

-Bo'sh vaqtim deyarli bo'lmaydi. O'qishdan keyin qo'shimcha dars o'rganish uchun institutga qatnayman. Uyda mustaqil til o'rganaman.

Ovqatlar, shirinliklar pishirishni yoqtiraman. Ish qilayotganimda yoqimli kuy tinglash jonu dilim. Turli bezaklar, yumshoq o'yinchoqlar tikishni yaxshi ko'raman. Xitoy tilini o'rganish jarayonida bu yurtning tarixiga, madaniyatiga juda qiziqib qoldim. Ularning milliy an'analari biznikiga juda o'xshash ekan. Masalan, biz Navro'z

ayyomini nishonlaydigan kunimiz ular ham Chundiya - bahor bayramini tantana qilishar ekan. Bizning bo'g'irsog'imizga o'xshash «Yuebi» deb ataladigan milliy taomlarini yeb, oyga boqib, yaxshi-yaxshi ezgu tilaklar qilishar ekan. Yana, xitoy milliy liboslarini tikishni, milliy taomlarini tayyorlashni ham o'rganyapman. Ovqatni ham qoshiqda emas, cho'plar yordamida yeyapman. Xitoy tilida she'rlar yozishga intilyapman.



Lekin hozircha yozganlarimdan ko'nglim to'lmayapti. Birdan-bir orzuim Xitoyga borish, bu yurtni o'z ko'zim bilan ko'rish...

Bu yurtga bo'lgan qiziqishim juda kuchli bo'lganidan «Buyuk ipak yo'li» mavzusida ilmiy ish ham qilganman. Ilmiy rahbarim Akrom aka Karimov bilan internet orqali ma'lumotlar oldik. Ular meni xitoylik qizlar bilan ham tanishtirib qo'ydilar. Ular bilan muloqotda bo'lib, xitoylik bolalar haqida, ularning qiziqish va intilishlari, sevimli mashg'ulotlari, ta'lim-tarbiya jarayoni haqida maqola yozishni niyat qilib qo'ydim.

-Televizor ham ko'rasizmi?

-Ko'raman. Lekin ko'p emas. Asosan, milliy ruh bilan sug'orilgan, sharm-hayo, o'zaro hurmat asosiga qurilgan yapon, koreys tilidagi filmlarni miriqib tomosha qilaman.

-Dugonalaringiz ko'pmi?

-Nimagadir o'zim tengilar bilan emas, mendan yoshi kattaroq qizlar bilan gapimiz kelishadi. Shuning uchun ham institutda o'qiydigan qizlar orasida dugonalarim talaygina. Turli viloyatlarda yashaydigan dugonalarim ham talaygina. Xitoylik qizlar bilan ham internet orqali do'stlashib olganman. Mahalladagi qizlar bilan unchalik yaqin dugona emasmiz. Ularning pista chaqib, allaqanday filmlaru rusmbop kiyimlar haqida gaplashishlari meni zeriktirib yuboradi.

-Kelgusida yaxshi tarjimon bo'lishni, xitoy tilidan dars berishni orzular ekansiz-a?

-Ha, aynan o'zim tahsil olayotgan litseyda dars berishni xohlayman. Chunki

litseyimda xitoy tili o'qituvchilari yetishmaydi. 1-kursdayoq o'qituvchimiz to'rt marotaba o'zgaragan. Hozir ham 1-kurs talabalariga dars beradigan o'qituvchi yo'qligidan men ularga dars o'tyapman. Men-ku, institut o'qituvchilaridan qo'shimcha dars olib, tilni mukammal o'rganib boryapman. Lekin bunday bilim olishga hammaning ham sharoiti, imkoniyati to'g'ri kelavermaydi-da...

-Kuni kecha ustoz va murabbiylar kunini nishonladik. Ularga tilaklaringiz?

-O'qituvchilik - sharaflil, shuningdek, o'ta mas'uliyatli va mashaqqatli kasb. Yana bu kasb insondan fidoiylilikni talab qiladi. Ming afsuski, ayrim ustozlarimizga ana shu fidoiylilik yetishmaydi...

O'z kasbiga sodiq qolib, astoydil mehnat qilayotgan, yosh avloddan bilimi va mehrini ayamayotgan qalbi daryo ustoz va murabbiylarimizga atalgan samimiy niyatlarimni she'riy misralar orqali ifoda etsam:

*Bolalik olamin kezar choq'imda,
Navolar yangradi ko'ngil bog'imda.
Ongimda ilm nurin yoqqan chirog'im,
Ilk bor Siz bo'ldingiz, aziz ustozim.*

*Shunda qo'llarimga tutdim men qalam,
Shunda ko'z o'ngimda jonlandi olam.
Meni farzand degan ikkinchi onam,
Faqat Siz bo'ldingiz, aziz ustozim.*

*Shod yursam, sevinchdan ko'zin yoshlagan,
Har nafas qalbinga nazar tashlagan.
Komillik yo'lga meni boshlagan,
Yana Siz bo'ldingiz, aziz ustozlar.*

*Muqaddas bilgayman dono so'zingiz,
Mehr ummoniga qiyos ko'zingiz.
Xalqim ardog'ida mangu o'zingiz,
Doim omon bo'ling, aziz ustozim.*

*Muxtasar aylayman shu yerda so'zim,
Shogirdlar nomidan etaman ta'zim.
Bugun yurtimdagi barcha to'y, bazm,
Faqat Siz uchundir, aziz ustozim!*

-Niyatlaringiz ijobat bo'lsin. Kamolingizni ko'rish ota-onangizga, ustozlaringizga nasib etsin, Gulnozaxon!

Feruza JALILOVA suhbatlashdi.

Gulnoza AZIMOVA,
Toshkentdagi 163-maktabni o'lib baholarga...
Yoshligidan o'qituvchilikka ishtiroq bali. Hozirda Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyining xitoy-til bo'limida tahsil olayapti.



Mustaqil yurt bolalari iqtidorlidir



- Ingliz, fransuz, ispan, qozoq, egalladim. rus, o'zbek tillarida bemalol so'zlasha olaman, -deydi Sofiya. -Yaqinda o'qishdan ajralmagan holda Malayziya elchixonasi qoshida tashkil etilgan ingliz tiliga ixtisoslashgan «Yozgi mavsum» o'quv markazini a'lo baholarga tugatdim. Endi yapon tilini ham o'rganmoqchiman. Qancha ko'p o'qisam xorijlik do'stlarimning hayoti bilan shunchalik yaqindan tanishaman. Til bilishim sport sohasidagi bilimlarimni oshirishga ham qo'l kelmoqda. Chunki Karatening «Qumite» turi bo'yicha sport yetakehisi darajasiga ko'tarildim. Sport ham mening jonu dilim. «Azamat Karim» sport klubida karate bo'yicha muntazam shug'ullanaman. O'zbekistonda o'tkazilgan sport musobaqalarida bir necha marta qatnashib, faxrlil o'rnlarga sazovor bo'ldim. Yaqinda Qozog'iston Respublikasida 50 kg. vaznlilar o'rtasida o'tkazilgan sport musobaqasida birinchi o'rinni

«Harakatda barakat», deydi dono xalqimiz. «Qora belbog'» sohibasi Sofiya Bermagametova ana shunday harakatchan o'quvchilardan. U Toshkent Davlat Agrar Universiteti qoshidagi Qibray Akademik litseyining Xorijiy filologiya yo'nalishi bo'yicha 1 - bosqich talabasi.

OYDIN ORZULI QIZ

medalim va vazifalarni uddalash uchun doimo vaqt topiladi. O'zim ham bu ishlarni bekamu-ko'st bajarishga intilaman. -Uy yumushlarida murakkab ishlar ham bor deysizmi? -Ha, bo'rsildoq shirmoy nonlar yopish, bejirim ko'rpacha-yu kashtali yostiqlar, guldor sochiqlaru zarbof palaklar tikish kabi vazifalar murakkab-da. Bu ishlarni uddalash uchun qiz boladan qanchadan-qancha sabr - qanoat, mehr - muhabbat talab qilinadi. Oson emas. Ammo kelgusida oqila beka bo'laman degan har bir qiz bu yumushlarni uddalashi lozim. Qolaversa, Zulfiyaxonim qizi bo'lishning o'zi bo'lmaydi. Aytgandek, Akademik litseyimizdan mening nomimni Qibray tumani bo'yicha Zulfiya mukofotiga nomzodlikka tavsiya qilishgan. Bunday ishonchni oqlash, ushbu mukofotni qo'lga kiritish uchun bor kuchimni sarflayman.

Umr yo'llari saodat nuri bilan yo'g'rilayotgan tengdoshingiz Sofiyaga biz ham oydin orzularing ijobat bo'lsin, deymiz.

Jamila MUSO qizi suhbatlashdi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim-qadim zamonlarda bir podsholikda boy va kambag'al kishilar yashashar ekan. Kambag'al kishi boynikida xizmat qilib oilasini boqar, erta

boy uning ko'pkari uchun ot so'rayotganini darrov fahmlabdi. Agar Jamoini omadi chopib poygada g'olib bo'lsa-ya, yo'q- yo'q, o'g'lim Karim g'olib bo'lishi lozim. Bunga ot

ataylab dag'dag'a qila boshlabdi. Nega otlarni yaxshi boqmadilaring? Hammasini qovurg'asi ko'rinib qolibdi. Ishyoqmaslarga beradigan hech vaqoyim yo'q, degancha ularni

Jamolga tizginni tutqazibdi. -Qani o'g'lon, ko'pkari sari uch, bu qashqaning tilini tushunsang, seni marraga birinchi bo'lib olib boradi. Agar g'irromlik qilsang, chetga itqitib yuboradi,- debdi. Nuroniy chol va otasidan oq fotiha olgan Jamol poyga sari ot surib ketibdi. Jamolning ko'zi

yigitlar orasida turgan boyning o'g'li Karimga tushibdi. Bosh iring'ab salom bergan ekan, u yuzini teskari o'girib olibdi. Shu payt «Boshlanglar» degan farmon yangrabdi. Jamol ham uloqqa yaqinlashish payida otini yeldiribdi. Qashqa ot ola-tasir va chang-to'zon orasidan shamoldek yelibdi. Jamol qo'lidagi uloqni baland ko'targancha marra sari birinchi bo'lib yetib kelibdi. Ofarin, ofarin, degan olomon hayqirig'i borligini tutib ketibdi. Jamol qashqa ot ustidan tushibdi-da, qarshisida turgan nuroniy cholni ham, otasini ham mahkam bag'riga bosibdi. Jamolning otasi nuroniy otaxonning poyiga tiz cho'kib: «O'g'limga qilgan saxiylikingiz uchun sizga ming rahmat, u dunyo bu dunyo aslo kam bo'lmang», debdi. Olqishlarga sazovor bo'lgan Jamolni podshoh huzuriga chorlashibdi. Barchaning nigohi g'olib chavandozga qadalibdi. Ushbu nigohlar orasida hasad bilan yonib turgan boy ham bor ekan. Uning o'g'li esa o'rtog'iga havas bilan qarab turarkan...

Nuriddin HAYDAROV,
UZMU qoshidagi S.Rahimov
Akademik litseyning
302-guruh talabasi.

HASADNING HAVASGA AYLANISHI

tongdan to shomgacha tinimsiz ishlasa-da, qora mehnati evaziga arzimas haq olarkan. Ularning har ikkalasining ham tengqur o'g'illari bo'lib, farzandlarining fe'l-atvori ham xuddi otalariga o'xshar ekan. Boyning o'g'li Karim o'ziga o'xshagan man-man, erka, hurmatsiz, boylikka o'ch bo'lib voyaga yetibdi. Kambag'al esa o'g'li Jamolga saxiy, mehribon, ochiqko'ngillik kabi fazilatlarini singdirib tarbiyalabdi. Bir kuni podsholik yurtga farmoni oliy berib, barcha bo'z yigitlarni ko'pkari chopishga chorlabdi. Kimki marraga uloqni birinchi bo'lib olib kelsa, unga podsholik nomidan bo'yi baravar tillo va'da qilinibdi. Bu farmonni eshitgan barcha yigitlar poygada g'olib bo'lish uchun obdon mashq qila boshlashibdi. Qishloqdosh yigitlarning ko'pkariga tayyorlanayotganini ko'rgan Jamol otasiga: -Agar bizning ham otimiz bo'lganida, men ham musobaqaga borardim.

O'g'lining ko'ngli o'ksiyotganini ko'rib, boyning oldiga borib, undan bitta otni qarzg'a berib turishini, uning haqini otxonada tunda qolib ishlab uzishini aytibdi. Ayyor

bermasdan qanday qilib aldasam ekan, o'ylabdi boy. Oxiri yo'lini topibdi. Hasadning yo'li ham tezda ko'zga tashlanar ekan-da. Mayli, aytganingga ko'ndim, faqat o'g'ling ham sen bilan baravar otxonamda ishlaysanlar, debdi. Shunday qilib, ota-bola ter to'kib mehnat qila boshlashibdi. Jamol qo'llari tinimsiz mehnatdan tolib, ko'zlariga uyqu to'lsa ham tishinitishiga qo'yib chidar ekan.

O'g'lining qiynalayotganini ko'rib otasi unga tasalli berar, nasib bo'lsa, yana bir kundan keyin bu yerdan gijinglagan tulporni minib chiqasan Jamol, deya yelkasiga qoqib qo'yar ekan. Mana, nihoyat kutilgan vaqt ham yetib kelibdi. Ertaga poyga boshlanadi. Lekin ichi qora boy Jamol va uning otasiga bu tun ham ishlaysanlar, deb javob bermabdi. Ertasiga otxonaga kirib kelgan boy

oldiga solib quvlabdi. Bu xo'rliklarga chiday olmagan kambag'al yum-yum yig'labdi. Xafa bo'lmang otajon, mayli,

O'zimiz ertak yozamiz

men ko'pkariga bormayman, debdi Jamol. Yo'lda ketishayotsa, qashqa ot mingan oppoq soqolli mo'ysafid ularga peshvoz chiqibdi.

-Assalomu alaykum ota, -deya salom beribdi o'g'li. -Vaalaykum assalom, borakallo, senga tarbiya bergan ota-onangga ming rahmat o'g'lim, -debdi mo'ysafid kishi.

Kayfiyati yo'q kambag'al esa nuroniy kishi bilan bosh silkib omonlashibdi. Uning dilidagini ma'yus nigohlaridan o'qigan mo'ysafid otdan tushib




1	2	3	4	5
14	15	16	17	
13				6
	22		23	
		26		24
	21	25		
12				7
	20			19
11	10	9	8	

BOSH QOTIRMA

TOPISHMOQLAR

Olimpiada va bahslarda,
Yuksaklarda hilpirar.
Horijiy mehmonlarga,
O'zligimiz bildirar.
To'p-chi, bilag'on o'rtoq,
Uning nomidir ...



Ko'klam chog'i tog'da o'sar,
Nafis, qizil gilam to'shar.

O'zi juda kichkina,
Do'sti uning ip, qaychi.
Ro'zg'orda o'rni katta,
Qani bu nima, ayt-chi?



Ikki turi bor uning,
Zaharli va zaharsiz.
Soyabonga o'xshatsam,
Nomin darhol topasiz.

Bibimary am XO'JANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 57 - maktabning
11 - sinf o'quvchisi.

SAVOLLAR:

1.....Navoiy 2.Usta asbobi.
3.G'am, qayg'u. 4.Shohning qizi. 5.Xushbo'y gul,gullar malikasi. 6.O'quvchi darsda ishlatadigan ish quroli. 7.Darslik, fan. 8.Sehrli o'lka,

qit'alardan biri. 9.Dono, bilimdon. 10.Noma'lum son. 11.Yirtqich hayvon. 12.Gullar shahri. 13.Ism, ot. 14.Matematika savoli. 15.Ishyoqmas, dangasa. 16. Shirinlik. 17.Sug'orilmaydigan yer.

18.Yevropadagi davlat. 19.Abdulla.....(shoir) 20.Saxiy. 21.Poytaxti Rim. 22.Viloyatlardan biri.

23.Tuyaqushning nomi. 24.Buyuk astronom bobomiz. 25.Tunning ukasi. 26.Dunyodagi eng uzun daryo.

Tuzuvchi: Mirobid MAMADALIYEV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf «Matematika» guruhi o'quvchisi.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA

(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 11770
Buyurtma N: J579

Gazetani
Otabek ESHCHANOV
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45